

**BUXORO XALQ SOVET RESPUBLIKASI (1920–1924 YILLAR)DA
BOJXONA TIZIMI (BUXORO VILOYATI ARXIV MATERIALLARI
ASOSIDA)**

Mirjon Mo‘minovich RAXMATOV

mustaqil izlanuvchi

Buxoro davlat universiteti

Buxoro, O‘zbekiston

e-mail: rahmatov1778@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada 1920–1924-yillar oralig‘ida mavjud bo‘lgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR)da bojxona tizimining tashkil topishi, faoliyati va rivoji tahlil qilinadi. Buxoro viloyati davlat arxivi hujjatlari asosida tadqiqot olib borilib, hozirgacha arxivda saqlanib qolgan materiallar asosida tarixiy ma’lumotlar ko‘rib chiqiladi. Maqsad – BXSR davridagi bojxona tizimi faoliyatini arxiv manbalari asosida o‘rganish va baholashdan iborat.

Tayanch so‘zlar: Buxoro, arxivshunoslik, bojxona tizimi, BXSR, Buxoro amirligi, Buxoro arxivi.

**ТАМОЖЕННАЯ СИСТЕМА В БУХАРСКОЙ НАРОДНОЙ СОВЕТСКОЙ
РЕСПУБЛИКЕ (1920–1924 ГГ.) (НА ОСНОВЕ АРХИВНЫХ
МАТЕРИАЛОВ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ)**

Мирджон Муминович РАХМАТОВ

Независимый исследователь

Бухарский государственный университет

Бухара, Узбекистан

e-mail: rahmatov1778@gmail.com

Аннотация

В статье анализируется становление, деятельность и развитие таможенной системы Бухарской Народной Советской Республики (БНСР), существовавшей в 1920–1924 годах. Исследование проведено на основе документов Бухарского областного государственного архива, а исторические сведения раскрыты на основе материалов, сохранившихся в архиве до

настоящего времени. Цель статьи – изучить и оценить деятельность таможенной системы в период БССР на основе архивных источников.

Ключевые слова: Бухара, архивоведение, таможенная система, БНСР, Бухарский эмират, Бухарский архив.

Har bir mamlakat taraqqiyoti, iqtisodiy rivojlanishi, xalq farovonligining asosi mazkur davlatdagi bojxona tizimining qanday yo'lga qo'yilganligi bilan ham baholanadi. Zero, mamlakatdagi tashqi savdo, xalqaro aloqalar, chegara mustahkamligi, ichki bozorni himoya qilish, tovar aylanmasi singari muhim iqtisodiy ko'rsatkichlar aynan bojxona organlari orqali nazoratga olinishi barchaga ma'lum. Ushbu huquqni muhofaza qilish organlarining Yangi O'zbekiston taraqqiyotida alohida o'rin tutishi mamlakatimiz rahbarining "Bojxona boshqa davlat idoralariga namuna bo'lishi kerak" [1] degan fikri orqali ham o'z isbotini topmoqda. Bojxona tizimi ham ma'lum tarixga ega. Viloyat arxivlarida saqlanayotgan materiallar asosida soha o'tmishiga oid muhim ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Jumladan, 1920-yil 2-sentabrda sovetlar bosqini natijasida Buxoro amirligining tugatilishi hamda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR)ning e'lon qilinishi bilan mintaqada siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy boshqaruv tizimini tubdan o'zgartirib yubordi. Bojxona tizimi ham yangi sovet tartibining tarkibiy qismi sifatida qaytadan tashkil etila boshlandi.

BXSR hududi hozirgi mamlakatimiz hududidagi Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR), TASSR singari Sovet Rossiyasi bilan bevosita chegaradosh bo'lganligi bois, chegarani nazorat qilish va tovar aylanishini tartibga solish dolzarb vazifalardan edi. 1920-yilda tashkil topgan BXSR Xalq Moliya Komissarligi qoshida maxsus bojxona bo'limlari tashkil etilib, ular Turkiston ASSR bilan chegaradagi asosiy postlarda faoliyat yurita boshladi [3]. Biz ushbu bojxona tizimi faoliyatini o'rganish maqsadida Buxoro viloyat arxivi fondida saqlanuvchi materiallarni o'rganishga qaror qildik. 1920–1924-yillar mobaynida BXSR bojxona tizimi

mintaqaning siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarining bevosita ko'zgusi bo'ldi. Tizimning qisqa muddatli faoliyati Buxoroning xalqaro savdodagi rolini saqlab qolish, ammo uni sovet tartiblariga moslashtirishga urinish bo'lgan. Arxiv materiallari bu tizimning murakkab, lekin tarixiy jihatdan muhim bir davrini yoritishga xizmat qiladi.

Buxoro viloyati davlat arxivining 62-fond, 1-ro'yxat, 27-ishida ko'rsatilishicha, 1921-yilda BXSRning Kogon, Qarshi, G'ijduvon, Termiz shaharlarida bojxona punktlari faoliyat yuritgan [2]. Arxiv materiallarini titkilash chog'ida BXSR bojxona inspektori lavozimida ishlagan Afanasyev imzosi bilan chiqarilgan buyruqqa duch keldik. Bunda BXSRda bojxona tizimining yo'lga qo'yilishi hamda RSFSR bojxona tizimi bilan integratsiyasi haqida kelishuv aks etgan.

Bunga ko'ra Buxoro Xalq Sovet Respublikasining Toshkent bojxona okrugi vakolatlari doirasida O'rta Osiyo mintaqasida bojxona ishlarini tashkil etish masalasi ko'rib chiqilganligi, chegaradagi bojxona punktlarida yuklarni ro'yxatga olish va boj undirish ishlari olib borilganligi aytiladi. Ayrim hollarda tovarlar tekshiruvsiz o'tkazilayotganligi aniqlanib, bu kontrabanda xavfining oshganligi ta'kidlangan. Shuningdek, chegara hududlarida bojxona nazoratini kuchaytirish zarurligi aytiladi. Toshkentdan kelgan ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro hududiga kelayotgan tovarlarning bir qismi vaqtida ro'yxatga olinmayotganligi aytiladi hamda ayrim amaldorlarning e'tiborsizligi va bojxona jarayonlarining yetarlicha nazorat qilinmagani sababli davlat bojxona daromadlari kamayganligi tanqid qilingan. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bojxona xodimlariga qo'shimcha ko'rsatmalar berish, yuklarni tekshirish tartibini qat'iylashtirish hamda har bir bojxona punktida hisob-kitob ishlarini aniq yuritish taklif etilgan. RSFSR va BXSR o'rtasida bojxona ishlarini muvofiqlashtirish masalasi ko'rib chiqiladi. Turkiston va Buxoro bojxona okruglari faoliyatini bir-biriga moslashtirish, yagona boj stavkalarini joriy etish va chegara punktlarida bir xil tartibni

oʻrnatish rejalashtirilib, Buxoro okrugida ayrim bojxona lavozimlari mavjud boʻlmaganligi bois, qoʻshimcha kadrlarni tayinlash masalasi ham koʻtarilgan.

Buxoro viloyati davlat arxivi materiallarini oʻrganar ekanmiz, bu yerda BXSR bojxona tizimi toʻgʻrisida maʼlumot beruvchi koʻplab materiallarga duch keldik. Xususan, Turkiston bojxona okrugi (*TurkTamOkrug*) ga BXSR bojxona qoʻmitasi nomidan Ismoil Aliaskarovning arizasi alohida diqqatga sazovor. Unda Aliaskarov Buxoro-Eron chegaralari oʻrnatilganligi, chegara postlarini mustahkamlash, bojxona toʻlovi masalalarida Turkqoʻmitaga murojaati aks etadi [2]. Toshkent, 1923-yil 14-may sanasi bilan roʻyxatga olingan bu hujjat I. Aliaskarov imzosi bilan muhrlangan. Oʻz navbatida ushbu murojaatga ijobiy ruxsatnoma tariqasida Turkiston bojxona qoʻmitasidan Afanasyev va bosh inspektor imzosi bilan javob xati yuborilgan.

Bundan shuni anglash mumkinki, BXSR va qolaversa, XXSR bojxona tizimi Oʻrta Osiyoda bolsheviklarning asosiy siyosiy tuzilmasi hisoblangan Turkiston ASSR bojxona tizimiga boʻysungan.

BXSRda bojxona tizimining shakllanishi bilan boshqa davlatlar, okruglar bilan iqtisodiy integratsiyalash boshlandi. Arxivda Buxoro jumhuriyatining savdo aloqalari masalasida Moskva, Petrogradsk, Ukraina, Qrim, TASSR hukumatlariga yuborgan xatlarini ham oʻrganishimiz mumkin. Shunday hujjatlardan birida shuni kuzatdikki, Moskvadan BXSRga bojxona bosh inspektori qilib Y.A. Otroyev yuborilgan.

Arxiv materiallarining aksariyati kirill yozuvi rus tilida, bir qismi esa eski oʻzbek yozuvidagi oʻzbek tilida saqlanib kelmoqda. Bu materiallarni oʻrganish asnosida biz Buxoro Xalq Sovet Respublikasi, umuman, mamlakatimiz bojxona tizimi tarixiga oid muhim maʼlumotlarni bilib olishimiz hamda kerakli xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega boʻlamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida bojxona ma'murchiligini yanada takomillashtirish va sohani korrupsiyadan xoli tizimga aylantirish bo'yicha ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishdagi nutqidan. 2022-yil 17-fevral. Lex.uz
2. Buxoro viloyati davlat arxivi (BVDA), 62-fond, 1-ro'yxat, ishlar: 27, 31, 44.
3. Junayev Z.B. Buxoro Xalq Sovet Respublikasida soliq siyosati va bojxona tizimi //Qoraqalpoq davlat universiteti "Axborotnoma"si, 2020. – №1.
<https://scienceweb.uz/publication/17418>
4. Ибодов И. Бухоро Халқ Совет Республикаси давлатчилиги. – Самарқанд, 2011.
5. Советское строительство в Бухарской НСР. – Ташкент, 1923.
6. Тўйчиев Б. Бухоро инқилоби ва совет ҳокимияти ўрнатилиши. – Тошкент, 2000.
7. Хидиров С. Совет даврида Ўзбекистонда божхона тизими. – Тошкент, 1995.